



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш... <b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

6. Паршина В. С. Управление развитием персонала корпораций: автореф, дис, д-ра экон, наук / В. С. Паршина. – Ижевск: Удмурт. гос. ун-т, 2007. – 38 с. Развитие персонала // [www.Grandars.ru](http://www.Grandars.ru). – Режим доступа: <http://www.grandars.ru/college/biznes/razvitie-personala.html>
8. Развитие персонала // Самопознание. Ру. – Режим доступа: [http://samopoznanie.ru/schools/razvitie\\_personala/](http://samopoznanie.ru/schools/razvitie_personala/)
9. Герш М. В. Развитие персонала / М. В. Герш // Отдел кадров коммерческой организации. – 2014. – № 1. – Режим доступа: <http://hr-portal.ru/article/razvitie-personala?page=2>
10. Управление развитием персонала на основе зарубежного опыта // Управление персоналом. – Режим доступа: <http://upravleniam.ru/page106/page146/index.html>
11. Медведева Т. А. Система социально-трудовых отношений: смысл, форма, содержание, процесс / Т. А. Медведева // Вестник ВГУ. Сер. Экономика и управление. – 2014. – № 1. – С. 90–96.
12. Санкова Л. В. Оценка эффективности программ активной политики занятости: теория и методология / Л. В. Санкова, А. В. Косарева // Вестник Саратовского государственного технического университета. – 2011. – Т. 3, № 1. – С. 357–368.
13. Янченко Е. В. Определение профессиональных компетенций работников банковской сферы / Е. В. Янченко, Э. Р. Альмухамедова // Казанская наука. – 2014. – № 4. – С. 104–111.
14. Кибченко М. М. Методика бюджетирования расходов на персонал / М. М. Кибченко. – Режим доступа: <http://ipp.hse.ru/popularpsy/articles/10/4694.html>.
15. Мансуров Р. Е. Оценка эффективности обучения персонала / Р. Е. Мансуров. – Режим доступа: <http://psyfactor.org/lib/mansurov3.htm>.

**UDK:339.137**

**TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARIDA RAQOBAT USTUNLIKLARINI  
SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI**

**ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ У  
СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

**THE MAIN FACTORS FOR THE FORMATION OF COMPETITIVE ADVANTAGES IN  
ENTREPRENEURIAL SUBJECTS**

**Isakov Azim Yusubjanovich**

Namangan Davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida dotsenti, PhD

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada tadbirkorlik sub'yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan tadqiq etildi. Tadqiqotning maqsadi raqobat ustunliklarini ta'minlovchi iqtisodiy, tashkiliy va innovatsion omillarni aniqlash va ularning tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot natijasida tadbirkorlik sub'yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirish inson kapitali sifati, innovatsion faoliyat, samarali boshqaruv va bozorga moslashuvchanlik darajasiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik sub'yektlari, raqobat ustunligi, raqobatbardoshlik, innovatsiya, bozor muhiti, boshqaruv samaradorligi.

В данной статье проведено научное исследование основных факторов, влияющих на формирование конкурентных преимуществ в хозяйствующих субъектах. Цель исследования определить экономические, организационные и инновационные факторы, обеспечивающие конкурентные преимущества, и оценить их влияние на эффективность хозяйственной

деятельности. В результате исследования установлено, что формирование конкурентных преимуществ в хозяйствующих субъектах напрямую связано с качеством человеческого капитала, инновационной деятельностью, эффективным управлением и уровнем гибкости по отношению к рынку.

**Ключевые слова:** хозяйствующие субъекты, конкурентное преимущество, конкурентоспособность, инновации, рыночная среда, эффективность управления.

In this article, the main factors affecting the formation of competitive advantages in business entities were scientifically studied. The purpose of the study is to identify economic, organizational and innovative factors that provide competitive advantages and assess their impact on the effectiveness of entrepreneurial activity. As a result of the study, it was found that the formation of competitive advantages in entrepreneurial subjects directly depends on the level of human capital quality, innovative activities, effective management and market flexibility.

**Keywords:** business entities, competitive advantage, competitiveness, innovation, market environment, management efficiency.

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi hamda iqtisodiyotda raqobat muhitining keskinlashuvi sharoitida tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda bozorda o'z o'rnini mustahkamlash uchun raqobat ustunliklarini shakllantirish tadbirkorlik subyektlari oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, raqobat ustunliklarining mohiyati, turlari va ularni shakllantiruvchi omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda raqobat ustunliklariga oid turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular asosan innovatsion faoliyat, inson kapitali, boshqaruv samaradorligi, marketing strategiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan bog'liq holda talqin etilmoqda. Biroq, tadbirkorlik sub'yektlarining o'ziga xos xususiyatlari, milliy iqtisodiyot sharoiti hamda tarmoq spetsifikasini inobatga olgan holda raqobat ustunliklarini shakllantirish omillarini tizimli o'rganish yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa, mazkur sohada kompleks ilmiy yondashuvga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy taraqqiyot jarayonida raqobat va raqobat ustunligi tushunchalari iqtisodiy nazariyaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida shakllanib, turli tarixiy bosqichlarda turlicha mazmun kasb etgan. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi, bozor munosabatlarining murakkablashuvi va innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi ushbu tushunchalarni qayta ko'rib chiqish va ularning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Raqobat kategoriyasi ilk bor klassik iqtisodiy maktab vakillari asarlarida tizimli ravishda yoritilgan. A.Smit [1] raqobatni bozor mexanizmining o'z-o'zini tartibga soluvchi asosiy omili sifatida baholab, uni “ko'rinmas qo'l” konsepsiyasi bilan bog'lagan. Uning ta'limotiga ko'ra, individual manfaatlarni ko'zlab harakat qiluvchi tadbirkorlar o'rtasidagi erkin raqobat resurslar taqsimotining samaradorligini ta'minlaydi va jamiyat farovonligini oshiradi.


D.Rikardo[2] va J.B.Sey[3] asarlarida raqobat ishlab chiqarish omillari harakatchanligini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qilingan. Ushbu yondashuvda raqobat ustunligi asosan mehnat unumdorligi, kapital samaradorligi va tabiiy resurslar bilan bog'langan. Biroq klassik iqtisodiy maktab raqobat ustunliklarining subyektiv, institutsional va innovatsion manbalarini yetarlicha hisobga olmagan.

Neoklassik iqtisodiy nazariya vakillari (A.Marshall, L.Valras) raqobatni bozor muvozanatiga erishish vositasi sifatida ko'rib, «komil raqobat» modelini ishlab chiqdilar. Ushbu modelda tadbirkorlik subyektlari o'zaro bir xil axborotga ega, mahsulotlar standartlashgan, bozorga kirish va chiqish erkin hisoblanadi[4].

Neoklassik yondashuvda raqobat ustunligi uzoq muddatli emas, balki vaqtinchalik holat sifatida qaraladi. Bu esa zamonaviy tadbirkorlik faoliyati uchun jiddiy cheklov hisoblanadi, chunki real

bozorlarda axborot asimmetriyasi, innovatsiyalar, brend, boshqaruv qobiliyati va institutsional muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Y.Shumpeter raqobat nazariyasiga mutlaqo yangi yondashuvni kiritib, uni “yaratuvchan vayronkorlik” jarayoni bilan bog‘ladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, raqobat ustunligi innovatsiyalarni joriy etgan tadbirkor tomonidan yaratiladi va u vaqtinchalik monopol foyda (tadbirkorlik rentasi) olish imkonini beradi (1-rasm). Bu yondashuv tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni raqobatbardoshlikning asosiy manbai sifatida ko‘rsatib bergan ilk fundamental nazariya hisoblanadi[5].



**1-rasm. Y.Shumpeter yondashuvida raqobat ustunligi.**

XX asr oxirlarida raqobat ustunliklarini tushuntirishda resurslarga asoslangan yondashuv RBV (Resource-Based View) shakllandi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tadbirkorlik subyekting barqaror raqobat ustunligi uning noyob, qiymatli, taqlid qilib bo‘lmaydigan va o‘rnini bosib bo‘lmaydigan resurslari bilan belgilanadi.

RBV doirasida raqobat ustunliklari quyidagi resurslar orqali shakllanadi:

- inson kapitali,
- bilim va tajriba,
- tashkiliy madaniyat,
- brend va obro‘,
- innovatsion qobiliyatlar.

Biroq ushbu yondashuv tashqi muhitning dinamikasini va institutsional omillarni yetarlicha hisobga olmasligi bilan cheklangan.

Institutsional iqtisodiyot vakillari raqobat ustunliklarini shakllantirishda huquqiy, me‘yoriy va madaniy muhitning roliga alohida e‘tibor qaratdilar. D.Nort, O.Uilyamson ishlarida institutsional sifat raqobatbardoshlikni ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi[6].

Tadbirkorlik faoliyatida raqobat ustunliklari qonun ustuvorligi, mulk huquqi himoyasi, shartnomaviy munosabatlar va davlat siyosati samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Yuqoridagi nazariyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqobat va raqobat ustunligi tushunchalari tarixiy rivojlanish jarayonida resurs va xarajatlar markazli yondashuvdan innovatsion, institutsional va dinamik qobiliyatlarga asoslangan yondashuvgacha evolyutsiya qilgan.

Shu bilan birga, zamonaviy tadbirkorlik faoliyati sharoitida raqobat ustunliklarini shakllantirishni: faqat resurslar, yoki faqat innovatsiyalar, yoki faqat bozor tuzilmasi orqali tushuntirish yetarli emas.

Bizning fikrimizga ko‘ra, tadbirkorlik sub‘yektlarida raqobat ustunliklari innovatsion iqtisodiyot sharoitida resurslar, institutsional muhit, tadbirkorlik xulq-atvori va dinamik qobiliyatlarning o‘zaro uyg‘un tizimi asosida shakllanadi.

Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda tadbirkorlik sub‘yektlarining raqobat ustunliklarini shakllantirish masalasi ko‘p qirrali va kompleks ilmiy muammo sifatida qaraladi. Global raqobatning kuchayishi, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va bozor muhitining dinamiklashuvi an‘anaviy nazariyalarni qayta ko‘rib chiqish hamda ularni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqobat ustunliklarini shakllantirishga oid zamonaviy nazariyalar tahlili tadbirkorlik faoliyatining real sharoitida ularning amaliy qiymatini baholash imkonini beradi.

Raqobat ustunliklarini shakllantirish masalasini tizimli asoslagan ilk zamonaviy nazariyalardan biri M.Porterning raqobat strategiyalari konsepsiyasidir[7]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tadbirkorlik subyekti bozorda ustun mavqega ega bo‘lishi uchun aniq raqobat strategiyasini tanlashi zarur.

Porter raqobat ustunliklarining ikki asosiy manbasini ajratadi: xarajatlar bo‘yicha ustunlik hamda differentsiatsiya orqali ustunlik.

Shuningdek, mazkur ustunliklar bozor qamrovi nuqtai nazaridan keng yoki tor segmentga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Natijada xarajatlar liderligi, differentsiatsiya va fokus strategiyalari shakllanadi.

Porterning yana bir muhim ilmiy yutug‘i – “besh kuch” modeli bo‘lib, u tarmoqdagi raqobat darajasini belgilaydigan omillarni (raqobatchilar, yangi kiruvchilar, o‘rinbosarlar, xaridorlar va yetkazib beruvchilar) tahlil qilish imkonini beradi.

Biroq, ushbu yondashuvning cheklangan jihati shundaki, u asosan tarmoq tuzilmasiga tayanadi va tadbirkorlik subyektlarining ichki innovatsion qobiliyatlari, bilim resurslari va institutsional muhit ta‘sirini yetarlicha hisobga olmaydi.

Raqobat ustunliklarini tushuntirishda navbatdagi muhim bosqich resurslarga asoslangan yondashuvning shakllanishi bilan bog‘liq. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tadbirkorlik subyektining barqaror raqobat ustunligi tashqi bozor sharoitlaridan ko‘ra ko‘proq uning ichki resurslari va qobiliyatlari bilan belgilanadi.

RBV doirasida resurslar quyidagi mezonlar asosida baholanadi: qiymatli bo‘lishi, noyob bo‘lishi, taqlid qilib bo‘lmasligi va o‘rnini bosib bo‘lmasligi.

Tadbirkorlik faoliyatida inson kapitali, bilimlar, innovatsion tajriba, tashkiliy madaniyat va brend ushbu talablarga javob beruvchi strategik resurslar hisoblanadi. RBV tadbirkorlik sub‘yektlarining raqobatbardoshligini tushuntirishda muhim nazariy asos yaratgan bo‘lsa-da, uning asosiy kamchiligi tashqi muhitning tez o‘zgarishi va institutsional cheklovlarni inobatga olmasligidir.


Innovatsion iqtisodiyot sharoitida resurslarning o‘zi raqobat ustunligini ta‘minlash uchun yetarli emasligi aniq bo‘ldi. Shu sababli dinamik qobiliyatlar nazariyasi shakllandi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tadbirkorlik subyektining asosiy ustunligi mavjud resurslarni o‘zgaruvchan muhitga moslashtirish, yangilash va qayta konfiguratsiya qilish qobiliyati bilan belgilanadi.

Dinamik qobiliyatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bozor signallarini his etish (sensing);
- imkoniyatlarni qo‘lga kiritish (seizing);
- resurslarni transformatsiya qilish (transforming) [8].

Ushbu nazariya tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarga tez javob qaytarish, yangi biznes modellarni joriy etish va raqobat ustunliklarini saqlab qolish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Innovatsion yondashuv raqobat ustunliklarini shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Y.Shumpeter g‘oyalari asosida shakllangan ushbu nazariyaga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlari innovatsiyalar orqali vaqtinchalik monopol ustunlikka ega bo‘ladi. Innovatsion raqobat ustunliklari quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi (2-rasm).



**2-rasm. Innovatsion raqobat ustunliklari.**


Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, elektron tijorat va platforma biznes modellari innovatsion raqobat ustunliklarining yangi manbalariga aylanmoqda.

Institutsional nazariya raqobat ustunliklarini shakllantirishda tashqi muhitning, xususan huquqiy, me'yoriy va madaniy institutlarning rolini asoslab beradi. Samarali institutsional muhit tadbirkorlik subyektlariga investitsiya kiritish, innovatsiyalarni joriy etish va uzoq muddatli strategiyalarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda institutsional sifat pastligi raqobat ustunliklarini shakllantirishga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli davlat siyosati tadbirkorlik raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, zamonaviy nazariyalarning har biri raqobat ustunliklarining muayyan jihatlarini ochib beradi, ammo ularning har biri alohida holda tadbirkorlik faoliyatining murakkab tabiatini to'liq ifodalay olmaydi.

Biz tomondan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, tadbirkorlik sub'yektlarida raqobat ustunliklari quyidagi (3-rasm) o'zaro integratsiyalashgan tizim sifatida qaralishi lozim.



**3-rasm. Tadbirkorlik sub'yektlarida raqobat ustunliklari.**

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichi innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi bilan tavsiflanib, unda bilim, texnologiya va inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omillariga aylanmoqda.

Bunday sharoitda tadbirkorlik subyektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirish an’anaviy resurs va xarajatlar modeliga emas, balki innovatsion salohiyat, raqamli transformatsiya va dinamik qobiliyatlarga asoslanadi. Shu sababli innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqobat ustunliklarining shakllanish xususiyatlarini ilmiy jihatdan ochib berish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati innovatsion jarayonlarning markazida joylashadi va bozordagi raqobat asosan texnologiya, sifat va tezkorlik orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida: mahsulot hayotiy sikli qisqaradi, iste’molchilar talabining individuallashuvi kuchayadi, raqobat global xarakter kasb etadi hamda raqamli platformalarning roli ortadi.

Bu holat tadbirkorlik sub’yektlaridan doimiy ravishda innovatsiyalarni joriy etish, biznes modellarni yangilash va bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashishni talab qiladi.

Innovatsion iqtisodiyotda raqobat ustunliklarining asosiy manbai innovatsiyalar hisoblanadi. Innovatsiya faqat yangi mahsulot yoki texnologiya bilan cheklanib qolmasdan, boshqaruv, marketing, logistika va tashkiliy tuzilmalarni ham qamrab oladi.

Tadbirkorlik sub’yektlari uchun innovatsion raqobat ustunliklari quyidagi yo‘nalishlarda shakllanadi:

- yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- mahsulot sifatini oshirish;
- bozorga chiqish tezligini oshirish;
- mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish.

Shu nuqtai nazardan, innovatsiyalar tadbirkorlik sub’yektlariga na faqat bozorda ustunlikka erishish, balki ushbu ustunlikni ma’lum muddat saqlab qolish imkonini ham beradi.

1. Raqamlashtirish va texnologik transformatsiya. Innovatsion iqtisodiyotning muhim xususiyatlaridan biri raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvidir. Raqamli texnologiyalar tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish, boshqaruv va marketing jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Raqamlashtirish raqobat ustunliklarini biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, elektron tijorat va platforma biznes modellari, iste’molchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yo‘nalishlarda shakllantiradi. Raqamli texnologiyalarni samarali joriy etgan tadbirkorlik subyektlari bozorda yuqori moslashuvchanlik va tezkorlikka ega bo‘ladi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

2. Inson kapitali va bilimga asoslangan raqobat ustunliklari. Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitali raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan va innovatsion tafakkurga ega kadrlar tadbirkorlik subyektlarining strategik resursiga aylanadi.

Inson kapitaliga investitsiya kiritish: innovatsion faollikni oshiradi, texnologik o‘zlashtirishni tezlashtiradi, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi, tashkiliy madaniyatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bilimlarning tashkilot ichida saqlanishi va uzatilishi raqobat ustunliklarining barqarorligini ta’minlaydi.

3. Biznes modellarning innovatsion transformatsiyasi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqobat ustunliklari ko‘p hollarda yangi biznes modellarni joriy etish orqali shakllanadi. An’anaviy ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan modellar o‘rniga platforma, ekosistema va servisga asoslangan biznes modellar keng tarqalmoqda.

Yangi biznes modellar: iste’molchilar uchun qiymat yaratish usullarini o‘zgartiradi, bozorga kirish to‘siqlarini pasaytiradi, hamkorlik va kooperatsiyani kuchaytiradi. Bu esa tadbirkorlik subyektlariga raqobat muhitida ustun mavqeni egallash imkonini beradi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarida raqobat ustunliklari an’anaviy omillardan farqli ravishda innovatsiyalar, raqamlashtirish, inson kapitali va biznes modellarning transformatsiyasi asosida shakllanadi. Innovatsion iqtisodiyotda raqobat ustunliklari: statik emas, balki dinamik xarakterga ega bo‘lib

doimiy ravishda yangilanib borishni talab qiladi hamda ichki salohiyat va tashqi muhit uyg‘unligida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.
2. Рикардо, Д. Начала политической экономии и налогового обложения / Д. Рикардо. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.
3. Say J.B. *A Treatise on Political Economy*. — London: Longman, Hurst, Rees, Orme, and Brown, 1821.
4. Маршалл, А. Принципы экономической науки / А. Маршалл. – М.: Эксмо, 2007. – 832 с.
5. Шумпетер, Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер; пер. с нем. В. С. Автономова. – М.: Эксмо, 2008. – 864 с.
6. Норт, Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики / Д. Норт; пер. с англ. А. Н. Нестеренко. – М.: Фонд экономической книги «Начала», 2007. – 180 с.
7. Портер, М. Конкуренция / М. Портер; пер. с англ. – М.: Вильямс, 2005. – 608 с.
8. Teece, D. J. Explicating dynamic capabilities // *Strategic Management Journal*. — 2007. — Vol. 28, No. 13. — P. 1322–1330.

**UDK:675**

**CHARM POYABZAL SANOATINING XOM-ASHYO ISHLAB CHIQRISH VA UNING ZAHIRA RESURSLARI**

**ПРОИЗВОДСТВО СЫРЬЯ И ЕГО РЕЗЕРВНЫЕ РЕСУРСЫ В КОЖЕВЕННО-ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**RAW MATERIAL PRODUCTION AND RESERVE RESOURCES OF THE LEATHER AND FOOTWEAR INDUSTRY**

**Ashurova Guljahon Nuralyevna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NOTM Iqtisodiyot kafedrası assistenti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish jarayoni, jahon tajribasi, O‘zbekistonning mavjud resurslari, tarmoqning rivojlanish istiqbollari va strategik zahira siyosati keng qamrovli tarzda yoritilgan. bozor iqtisodiyot sharoitida charm-poyabzal sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimi boshqarish va uni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Charm sanoati, poyabzal ishlab chiqarish, xom-ashyo, zahira resurslari, chorvachilik, qayta ishlash texnologiyalari, strategik zahira, jahon tajribasi,

В статье всесторонне рассмотрены процессы производства сырья в кожевенно-обувной промышленности, мировой опыт, имеющиеся ресурсы Узбекистана, перспективы развития отрасли и политика формирования стратегических резервов. Также проанализированы факторы, влияющие на управление и развитие системы менеджмента качества на предприятиях кожевенно-обувной промышленности в условиях рыночной экономики.

**Ключевые слова:** кожевенная промышленность, производство обуви, сырьё, резервные ресурсы, животноводство, технологии переработки, стратегические резервы, мировой опыт.